

O`G`IL BOLALAR KITELINI TIKISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH

PhD

V.O.Xomidov

38-20 YSBKIT guruh talabalari

A.Solijonov

Alijonova Dilrabo

Farg'onan politexnika institute

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`g`il bolalar kitelini tikish texnologiyasini ishlab chiqishdagi yangiliklar ko`rsatilgan. Texnologik jarayonda sarflangan vaqt miqdorini kamaytirish hamda mahsulot sifatini oshirish maqsadida, kiyimning choklarini biriktirishga, tikishdagi qulayliklar uchun asbob- uskuna tanlashga va kiyim yeng o`mizini tikishdagi tartibga o`gartishlar kiritilgan

Kalit so`zlar: tikuv mashinasi, texnologik ketma ketlik, dazmol, ishlov berish usullari, maxsus mashina, biriktirma chok, yormalash, ish razryadi

Yengil sanoatni rivojlantirish uchun korxonalarni modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish vazifalari qo`yilgan. Bu vazifa avvalambor iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo`naltirilgan va mahalliylashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir.

Davlatimizning rivojlanishi, jahoning yetakchi davlatlari bilan raqobatlashishi uchun har sohada jadallik bilan o`zgarishlar kuzatilib borilmoqda. Bu borada mamlakatimizda ishlab chiqarishni kengaytirilib, yengil sanoatning barpo bo`lishida tinmay mehnat qilayotgan mutaxassislarga davlatimiz tomonidan keng imkoniyat eshiklari ochilmoqda.

Hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo`lishini qo`llab – quvvatlash bo`yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirilmoqda. Jalon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag`batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo`llab-quvvatlash iqtisodiy o`sishning yuqori sur`atlarini saqlab olish muhim ahamiyatga ega. Bu vazifani bajarishda ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturini kengaytirish katta o`rin tutadi.

Kiyim strukturasini yanada takomillashtirish, sifatini yaxshilash, tikuvchilik sanoatini jadal rivojlantirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bugungi kunga dolzarb vazifa xisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun Respublikamizning tikuvchilik korxonalarida yangi texnika va ilg`or texnologiyani joriy etish, yangi kompleks mexanizasiyalashtirilgan jarayonlarni qo`llash, yangi materiallardan foydalanish, shu bilan birga texnologik jarayonlarni avtomatlashirish uchun kiyim detallarining konturlarini, baza konstruksiyalarini unifikasiyalash ishlarini yo`lga qo`yish talab qilinadi. Tayyor kiyim yuqori sifatli va uni ishlab-chiqarish jihatdan samarali bo`lishi uchun kiyimni loyihalash bosqichidayoq bunga zamin yaratiladi.

Hozirgi paytda o`g`il bolalar kitellariga ishlov berishda sezilarli o`zgarishlar bo`lmoqda. Kitel gavda qismining silueti, hajmi va uzunligi turlicha uzunlik hamda turli shaklda tikilmoqda. Koketka, yoqa, yenglarning katta-kichikligi va shakliga ko`pgina omillar, shu jumladan moda ta`sir etmoqda.

Kitel tikish uchun turli gazlamalar bilan birga zamonaviy materiallar assortimenti ham ishlataladi. Astari esa ko`pincha ip gazlama yoki asosiy gazlamadan bichiladi.

Kitel bichim shakli va gazlama xususiyatiga ko`ra O`zbekiston iqlimi sharoitida kuz hamda bahor fasllarida kiyish uchun juda qulaydir. Bu sifatlar o`g`il bolalar kitelini ommaviy ust kiyim bo`lib qolishining asosiy sabablaridir.



1-rasm.O`g`il bolalar kiteliga namunalar

Odam qomatini chizish va gavda turish holatini yaratish asoslarini egallagandan so`ng, keyingi bosqich bu libos chizishni o`rganish. Bu mato va materialarning assortimentini o`ziga hos hususiyatlarini va tasvirlash vositalarini o`rganish imkoniyatini beradi. Modellar yaratishda barcha foydalanadigan mato va materiallar ko`z o`ngida bo`lishi kerak.

Tikish jarayonining birinchi bosqichi kerakli turdag'i matoni tanlashdir. Mato tanlashda dizayner o`z dididan kelib chiqqan holda model uchun mos keladigan mato tanlashi lozim. Barcha kerakli ish qurollari bilan ishlangan, ish mazmuni unumli bo`ladi.

O`g`il bolalar kitelini tikishda korxonadagi ish quvvatini oshirish maqsadida tikish texnologiyasining konveyr usulidan foydalanish hamda o`z sohasida yetuk kadrlarnini ish bilan ta`minlashni taklif qilinadi. Mehnat unumdorligini oshirish uchun tikuv korxonasiagi ish o`rnlari tog`ri tashkillash hamda ish darajasiga bog`liq holda ishlarni har xil razryadli ishchilarga to`g`ri taqsimlash lozim. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini baholashda mahsulotni tikish uchun foydalanilgan asbob uskunalar ham muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy avtomat va yarim avtomat tikuv mashinalari, presslar va dazmollar tanlash shu jumladandir.

Ishlab chiqarish korxonasida ish unumdorligini oshirish maqsadida tikish texnologiyasida quyidagi usullar taklif qilinadi.

-kiyimdagи biriktirma chok foydalaniladigan choklariga dastlab biriktiruvchi chok so`ngra yormalash orniga zamonaviy mahsus mashinalar yordamida bir urinishda ham biriktirib ham yo`malab tikish

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, kiyimning sifati nafaqat uni ishlov berish narxiga, shuningdek, unga ishlov berish uchun tanlangan jihoz va uskunalarga ham ko`p jihatdan uzviy bog`likdir. Shunga asoslanib, buyumni ishlab chiqarish uchun oqimni zamonaviy unumli jihozlar va kichik mexanizatsiya vositalari bilan jihozlab, vaqt sarfini tejash lozim.

Inson hayotining turli vaqtida sharoitga mos holda turli kiyimlar kiyiladi. Ayni shu bois kiyimlarni maishiy, ishlab chiqarishga mos va sport kiyimlari kabi turlarga ajratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. Sh.M. Mirziyoyev. “Taqnidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘ilshi kerak”. 2019-yil

2. Abdullaeva Q.M., Boboxanova X.Sh. va boshqalar. «Bichish tikishni o‘rgatish metodikasi». T. 2007

3. Qisqacha uy rozgor ensklopediyasi

4. Materyalshunoslik asosalari

5. Keng assortimentdagи kiyimlarni loyihalash, modellashtirish va badiiy bezash Tashpulatov, M.K. Ramazanova, G.G. Alimova, Sh.G. Jorayeva

Foydalilanlgan internet saytlari:

1. www.textil.ru
2. [www.Roltex.ru.](http://www.Roltex.ru)
3. www.moda.ru
4. www.minikar.uz